www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

YOShLARDA KONFLIKTLAR NOMOYON BO‘LIShINING IJOBIY VA SALBIY OQIBATLARINI PSIXOLOGIK ASOSLARI

Olimov Temir Hasanovich
Osiyo Xalqaro universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
Ikromova Fotima Rasulovna

Osiyo Xalqaro universiteti pedagogika-psixologiya yonalishi birinchi bosqich magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada har bir inson konfliktlar bilan to‘qnash kelishi aniq bo‘lganligi sababli konfliktlar haqida keng bilimlarni tarbiyalash va shakllantirish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, yoshlarda konfliktlar to‘g‘risida nazariy va amaliy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar hosil qilish, ularni hayotga tayorlash, yoshlarni jamiyatdagi o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘lishida zarur ehtiyoj ekanligini haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, o’yin, talabalar, kreativ, qobiliyat, ma’naviyat, mafkura, iroda, jismoniy tarbiya, texnika, taktika, harakat.

Inson hayoti boshqalar bilan bo‘ladigan turli munosabatlarning uzluksizligidan iborat jarayondir. Ana shu munosabatlar esa har doim ham bir tekis silliq va tinch davom etavermaydi. Hayotning bir tekis davom etishini turli nizo va ziddiyatlar buzib turadi. Biz ularni konfliktlar deb ataymiz. So‘nggi vaqtlarda jamiyatimizdagi turli darajadagi o‘zgarishlar iqtisodiyotning jadal qadamlar bilan o‘sishi ma’naviy, ilmiy, texnikaviy imkoniyatlarning ochilishi murakkablik kasb etib boradigan dunyoni bilish va shu zamonda yashayotgan odamlarning to‘qnashuvi natijasida konfliktlarning turli ko‘rinishlarini namoyon qilmoqda.

Bugungi kunda konfliktlar mavzusi yoshlar o‘rtasiga olib kirilishi bejis emas. Xo‘sh aslida konflikt nima? Uni yengib bo‘ladimi, undan inson o‘zini ehtiyot qilishi mumkinmi, konfliktsiz yashash mumkinmi va konfliktning zararli yoki foydali tomoni nimada?

Konfliktlarga biz oilada, opa-singillar, aka-ukalar, yaqinlar, do‘stlar, ijtimoiy guruhlar, turli kompaniyalar o‘rtasida, shuningdek o‘qish va mehnat faoliyatida ham duch kelamiz.

Konflikt o‘zi nima? U qanday paydo bo‘ladi? Konflikt – o‘zaro qarama - qarshi bo‘lgan ziddiyatli manfaatlar va munosabatlarning ochiq to‘qnashuvidir. Hayot konfliktlarga to‘la. Insonning jamiyatdagi yashash tarzini turli ziddiyatlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bunday ziddiyatlarga har qanday yoshda, har joyda va har qanday vaziyatda to‘qnash kelish mumkin.

Konflikt har bir insonning ajralmas qismi bo‘lib, hech bir inson konfliktlardan o‘zini “kafolatlanganman” deb ishonch bilan ayta olmaydi.

Konfliktlar, odatda, ko‘p vaqtlar odamlar birga bo‘ladigan hollarda, ya’ni uzoq muddat bir-birlari bilan psixologik va ruhiy muloqatda bo‘ladigan hollarda, ular ma’lum muddat o‘zaro birga bo‘lishga majbur bo‘lgan paytlarda ko‘proq sodir bo‘ladi.

Har bir inson konfliktlar bilan to‘qnash kelishi aniq bo‘lganligi sababli konfliktlar haqida keng bilimlarni tarbiyalash va shakllantirish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, yoshlarda konfliktlar to‘g‘risida nazariy va amaliy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar hosil qilish, ularni hayotga tayorlash, yoshlarni jamiyatdagi o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘lishida zarur ehtiyoj ekanligini anglagan holda, ana shunday bilimlarni targ‘ib qilish bugungi kundagi eng dolzarb mavzularidandir.

Konflikt tabiy hodisadir. Konflikt - oddiy hol. U har kuni biz bilan hamroh, hayotimizga tegishli. Konflikt bo‘lgandan ko‘ra bo‘lmagani ma’qulroq deb o‘y-laymiz. Aslida biz konflikt vaziyatidan qochamiz va buni inkor etamiz. Konflikt vaziyatiga tushib qolganimizdagina bu vaziyatni konflikt ekanini anglaymiz va undan chiqib ketish yo‘llarini izlaymiz. Konfliklarni biz ma’lum bilimlarsiz to‘g‘ri baholay olmaymiz. Konfliktlarning

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

yoshlarga, yoshlar o‘rtasiga olib kirilishi bejiz emas. Konfliktlarning yoshlarga ta’sirini biz oilada, ota-ona, opa-singillar, mahalla, tengqurlar o‘rtasida hamda o‘qish va mehnat faoliyatida vujudga kelishini ko‘rishimiz mumkin.

Xo‘sh biz kimlarni yoshlar deb ataymiz? Yoshlar deb, biz aholining o‘sib kelayotgan qismini aytamiz. Bular;

1.O‘smirlar 11-15 yosh.
2.O‘spirinlar 14-21 yosh.
3.O‘spirinlikdan keyingi davr.

O‘smirlik davri qanday psixologik xususiyatlari bilan farqlanadi va o‘smirlarga konfliktlarning ta’siri nimalarda ko‘rinadi? Albatta bu savolga javob topish anchayin mushohada talab qiladi.

O‘smirlik davri asosan 11-15 yoshdagi bolalarni o‘z ichiga qamrab oladi ya’ni, 6-8 sinf o‘quvchilarini. Kichik va katta yoshdagi bolalarni tarbiyalash jarayoni qiyin kechadi. Bu davrda o‘smirlarning o‘z shaxsiy fikrlari paydo bo‘ladi. Ularda o‘z qadr qiymati haqidagi tushunchalari kengayadi. Jinsiy yetilish munosabati bilan paydo bo‘ladigan, yangi sezgilar, fikrlar, mayllar kechinmalar go‘yo o‘smir ongida hukmron bo‘ladi. O‘smir o‘z oila a’zolari; ota-onasi, aka-ukasi yoki opa-singillari bilan konflikt vaziyatga tushib qolishi mumkin. Bunga bevosita mahalla-kuy, maktab, tengdoshlarning ta’siri katta bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Olimov, T. The role of national spirituality and values in the development of civil culture in future specialists with higher education.
2. Olimov, T. (2020). Bo’lajak oliy ma’lumotli mutaxasislarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishning ayrim yo’nalishlari. Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal, 1(1), 20-27.
3. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent, 4.
4. Olimov, T. H. (2019). Spiritual and moral aspects of the formation of civil culture in future specialists of higher education. Theoretical & Applied Science, (12), 662-665.
5. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. Pedagogical skill-Bukhara, 2.
6. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. Pedagogical skill-Bukhara
7. Ikromova, S. (2023). INTERPRETATION OF THE PSYCHOLOGICAL SAFETY FACTOR IN RELATION TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN ADOLESCENTS. Modern Science and Research, 2(9), 390-394.
8. Ikromova, S. (2023). CONCEPT OF IDEOLOGY AND FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY IN YOUTH STUDENTS. Modern Science and Research, 2(6), 1223-1226.
9. Ikromova, S. (2023). FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN TEENAGERS. Modern Science and Research, 2(5), 1009-1014.
10. Ikromova, S. A. (2022). MILLIY VA DINIY QADRIYATLARNING INSON TARBIYASIDAGI O’RNI. Экономика и социум, (12-2 (103)), 675-678.
11. Ikromova, S. A. (2023). SHAXS OG ‘ISHGAN XULQINING KO ‘RINISHLARI VA DESTRUKTIV AXBOROTLARNING KO ‘RINISHLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 528-532.
12. Akbarovna, I. S. (2023). YOSHLARDA DESTRUKTIV G’OYALARGA QARSHI IMMUNITET HOSIL QILISH OMILLARI.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

13. Akbarovna, I. S. (2023). TALABA YOSHLARDA MAFKURA TUSHUNCHASI VA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH.
14. Akbarovna, I. S. (2023). O'SMIRLARDA DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANTIRISH.
15. Jalolov, T. S. (2023). PSIXOLOGIYA YO ‘NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARGA SPSS YORDAMIDA MATEMATIK USULLARNI O ‘RGATISHNING METODIK USULLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 323-326.